

MUHIM ILMIY TADQIQOT

(Sh.Turdiyevning “Ular Germaniyada o‘qigan edilar” kitobi haqida)

Marhabo QO‘CHQOROVA,

filologiya fanlari doktori, professor

O‘zR FA o‘zbek tili, adabiyoti va folklori institut yetakchi ilmiy xodimi

E-mail: dokma@bk.ru

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20677244>

Annotatsiya. Mazkur maqolada taniqli adabiyotshunos Sherali Turdiyevning “Ular Germaniyada o‘qigan edilar” ilmiy kitobiga obzor berildi, tadqiqotda qizil imperiya qatag‘oniga uchragan sobiq turkistonlik 17 talabaning tarjimai holi, fojiali qismati, ilmiy faoliyati haqida ma‘lumotlar jamlab berilgan. Maqolada tadqiqotning ilmiy ahamiyati haqida yozildi.

Kalit so‘zlar: Sherali Turdiyev, qatag‘on, sobiq turkistonlik talabalar, Germaniya, Turkiya, Turkiston ozodligi, Berlin xotiralari, tadqiqot, Tohir Chig‘atoy.

Аннотация. В данной статье представлен обзор научной книги известного литературоведа Шерали Турдиев «Они учились в Германии». В исследовании собраны сведения о биографиях, трагических судьбах и научной деятельности 17 бывших туркестанских студентов, ставших жертвами репрессий «красной империи». В статье также раскрывается научная значимость данного исследования.

Ключевые слова: Шерали Турдиев Sherali Turdiyev, репрессии, бывшие туркестанские студенты, Германия, Турция, свобода Туркестана, берлинские воспоминания, исследование, Тахир Чигатай.

Annotation. This article provides a review of the scholarly book “They studied in Germany” by the prominent literary scholar Sherali Turdiev. The study compiles information about the biographies, tragic fates, and academic activities of 17 former Turkestani students who became victims of repression under the Soviet regime. The article also discusses the scientific significance of this research.

Key words: Sherali Turdiev, repression, former Turkestani students, Germany, Turkey, Turkestan independence, Berlin memories, research, Tohir Chighatay.

Adabiyotshunos Sherali Turdiyevning “Ular Germaniyada o‘qigan edilar” kitobi nihoyatda katta ilmiy qimmatga ega tadqiqotlardan hisoblanadi. Mazkur kitob “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi hamda “Shahidlar xotirasi” xayriya jamg‘armasi boshchiligida Adenauer jamg‘armasining Marzakiy Osiyo, Qozog‘iston va Janubiy Kavkaz mintaqalari vakolatxonasining moliyaviy ko‘magi bilan Toshkentda 2006-yilda “Akadem-Xizmat” boshmaxonasida chop etilgan.

XX asrning 20-yillarida yetmishga yaqin iste‘dodli turkistonlik yoshlar Germaniyaga o‘qishga yuboriladi. Fan va xo‘jalikning turli sohalari bo‘yicha ta‘lim olishga ketgan yoshlar malakali kadr bo‘lib vataniga qaytishi kerak edi. Ammo O‘zbekistonning mustamlaka sharoitida yashayotgani, bu ishdan sovet hukumati



manfaatdor bo‘lmasligini inobatga olgan holda Qizillar imperiyasi bu talabalarning o‘qishni tugatmasdan vataniga qaytib kelish ultumatini qo‘yadi. Ularga va‘dalar beriladi. 1937-yilning qonli qatag‘oni boshlanishi bilan Germaniyaning josuslari va aksilinqilobchi-millatchi unsurlar sifatida bu yoshlar mahv etiladi.

Adabiyotshunos Sh.Turdiyev 1937-yil qurboni bo‘lgan yoki repressiyadan qochib, Turkiyada panohtopgan talabalarning fojiali taqdirini o‘rganib, “Ular Germaniyada o‘qigan edilar” kitobida ma‘lumot va faktlarni jamlab berdi. Olim bu kitobni yaratish uchun arxiv hujjatlari va shahid ketgan yoshlarning qarindosh-urug‘lari hikoya etib bergan jonli hayotiy xotiralarni yig‘ib, sobiq talabalarning fojiviy qismatini bugungi kitobxonga tanishtiradi.

Kitob 3 qismdan tashkil topgan. 1-qism “Turkistonlik talabalarning Germaniyaga o‘qishga borishi”, 2-qism “Germaniyada o‘qib O‘zbekistonga qaytib kelgan talabalar” va 3-qism “Germaniyada o‘qib O‘zbekistonga qaytib kelmagan talabalar” deb nomlangan. Shuningdek, kitobga muallifning “Kirish” so‘zi, “So‘ng so‘zi” ham kiritilgan. Ilovalar qismida Sh.Sulaymonning “Ovro‘pada Turkiston o‘quvchilari”; T.Riskulovning “Bizning talabalar Germaniyada”, O.Idrisiyning “Germaniyada o‘zbek shogirdlari”, “Yosh Turkiston” “Turkistonlilar diqqat-nazariga”, Eltarning “Istanbulda Turkiston kuni” hamda I.Yoqin, A.Ibrohimovning “Xotiralar”ini, Ahmad Zaki Validiy To‘g‘onning “Berlindagi Turkiston talabalari” xotira maqolalarini ham ilova etgan.

Kitobdan o‘rin olgan Turkistonlik talabalarning Germaniyaga o‘qishga ketib O‘zbekistonga qaytib kelgan Abduvahob Murodiy, Solih Muhammad, Sattor Jabbor, To‘lagan Mo‘min, Sulton Matqul, Basya Matqulova, Maryam Sultonmurodova, Xayrinisa Majidxonova, Gulsum Rahimova-Ashrafiy, Ruqiya Xo‘jayeva, Nasriddin Shermuhammedov, Fuzail Shermuhammedovlarning tarjimayi holi, hayoti, Germaniyadagi ta‘lim yillari, fojiali qismati haqidagi hujjatli faktlar berilgan. Bu qismda jami 12 ta sobiq turkistonlik talabalar haqida ma‘lumotlar taqdim etilgan. Keyingi qismda Germaniyada o‘qib O‘zbekistonga qaytib kelmagan Tohir Chig‘atoy, Ibrohim Yorqin, Abduvahob Ishoq, Saida Sherahmedova, Ahmadjon Ibrohimova ismli 5 ta sobiq turkistonlik talabalarning tarjimayi holi, hayoti, Germaniyada ta‘lim olib, so‘ngra Turkiyaga qochib ketib jonini saqlab qolganlar haqida ma‘lumotlar beriladi.

Olim kitobning birinchi qismida turkistonlik talabalarning Germaniyaga o‘qishga borish tarixini yoritadi. 1919-yilda “Turkiston Muxtoriyati hukumati” tashkil etilgach, Turor Risqulov, Fayzulla Xo‘jayev davlat rahbarlari hamda Munavvar qori Abdurashidxonov, Ubaydullo Xo‘jayev, Fitrat singari maorif va madaniyat fidoyilari “Qizil imperiya”dan qurilish va birinchi navbatda, feodal-xonlik, amirlik tuzumidan



qutilish uchun taraqqiy etgan mamlakatlar ilm-fanini o‘zlashtirish va shu orqali ona vatani mustaqilligini qo‘lga kiritishni reja qilishganini yozadi. Millat fidoiylari bo‘lgan bu kishilar o‘sha paytda G‘arbiy Yevropada eng taraqqiy etgan mamlakat – Germaniya deb topishadi. Ular shuning uchun ham turkistonlik yoshlarni Germaniyaga o‘qishga yuborishadi.

1921-yil 23-aprelda Toshkentda o‘tkazilgan O‘zbek ilmiy komissiyasi majlisida o‘zbeklardan xorijga talaba yuborish masalasini muhokama etishadi. Maqsad milliy kadrlar masalaini hal etish edi. Shu kommissiya majlisida A.Yunosov ma’ruza qiladi. Mazkur ma’ruza matnidan parchalar berilgan. Shuningdek, Sh.Turdiyev tomonidan O‘zbekiston Markaziy Davlat arxividagi hujjatlari asosida davr manzarasi, tarix qayta jonlantirilgan. A.Yunosovning ma’ruzasida shunday fikrlar uchraydi: “Bu qiyinchiliklardan chiqish yo‘li birgina, u ham bo‘lsa, Turkiston yoshlaridan eng qobiliyatli larni zudlik bilan xorijga yuborib, u yerlardan eng taraqqiy qilgan va eng qudratli bo‘lgan o‘rta va oliy tahsil olish imkoniyatini berishdir”. [1. 9-10]

Muallif Turkiston va Buxorodan 1922-yil oxirlarida 70 ga yaqin turli yoshdagi mahalliy yigit-qizlarni Germaniyaning turli shaharlaridagi oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlariga qishloq xo‘jaligi, tekstil sanoati, kimyo, elektrotexnika, falsafa, pedagogika, tibbiyot va boshqa muhim sohalar bo‘yicha o‘qishga ketaganini qayd etadi. Bular ichida Sayidali Xo‘jayev, Sattor Jabbor, Ahmad Shukriy, Ahmadjon Ibrohimov, Xayrinisa Majidxonov, Maryam Sultonmurodova va boshqalar bor edi.

Sh.Turdiyevning ma’lumotiga ko‘ra, Fitrat Vali Qayumxon va boshqalarni Amir Temurning sag‘anasi oldida qasam ichiradi. Bu voqeani Vali Qayumxon shunday xotirlaydi: “U meni Buxoroga olib bormoqchi bo‘ldi. Ammo u yerga borishdan oldin Buyuk hoqon Amir Temurning Samarqanddagi sag‘anasi oldida tiz cho‘kib, millat taqdiri uchun kurashaman, deb va’da berdim. Ko‘zimdan yosh chiqib ketdi”. [2. 11]

Sh.Turdiyev Germaniyaga ketgan talabalarning taqdiri bilan bog‘liq hujjatlarni O‘zbekiston Markaziy Davlat arxivi materiallari asosida o‘rgangan. Shuning uchun ham olim yaratgan “Ular Germaniyada o‘qigan edilar” kitobining ilmiy-tarixiy ahamiyati nihoyatda qimmatlidir. Jumladan, olim O‘zbekiston Markaziy Davlat arxivining P47-fond, 1-tavsif, 29-ish; 196-ish; 516-ish; 575-ish; 36 fond, 1-tavsif, 42-ishlarni o‘qib, undan ko‘chirmalarni, sud jarayonidagi savol-javoblar, anketa materillari, tergovchi va mahbus suhbatlaridan namunalar, parchalar keltirib, tadqiqotning tarixiylik va ilmiylik, hujjatlilik sifatini oshirgan.

Xorijdagi talabalarning moddiy ta’minoti qanday bo‘lgan? Bu savolga ham olim javob bergan. U yozadi: “Xorijdagi turkistonlik talabalarimizga davlat stipendiyalaridan tashqari, ularga yordam ko‘rsatish uchun tuzilgan “Ko‘mak”



jamiyatidan ham xayriya mablag‘lari yuborib turilgan. (Masalan, 1921 yili Toshkentda tashkil bo‘lgan “Ko‘mak” uyushmasi a‘zolarining o‘qigan ma‘ruzalari, milliy san‘at ustalari tomonidan ko‘rsatilgan spektakllardan tushgan daromadning 80, uloq poygasidan tushgan daromadning esa 20 foizi yuborilgan)”. [3. 12]

Ularning bu xayrixohligi va moddiy qo‘llab-quvvatlashlariga Germaniyaga ketib o‘qiyotgan turkistonlik talabalar minnatdorchilik sifatida 1921-1922-yillarda toshkentlik Abduvahob Murodiy “Berlindan xat” maqolasi, Sattor Jabbor (Ertoy taxallusi)ning ham maqolasi “Qizil Bayroq” hamda “Turkiston” gazetalarida chop etiladi. Masalan, A.Murodiy shunday yozadi: “Bir yildirki, Ovroqada yashamoqdaman. Ilm-maorifda Ovroqaning birinchisi bo‘lgan Germaniya dorulfununlarida butun dunyodan, hatto tatarlardan o‘nlab, turklardan esa minglab talabalar bo‘lgani holda bizning Turkistondan mendan boshqa talaba bo‘lmasligi yuragimni parchalamoqda, boshqalarga hasad sezgisi uyg‘otmoqda edi. Sizlarning bu xayrli muborak tashabbusingiz yillardan beri kulmagan ko‘nglimni kuldirdi va ruhimga jon berdi. Germaniyaga kelganimdan so‘ng ovrupoliklarni yaqindan tanimoqqa muvaffaq bo‘ldim...”. [4. 12]

Sattor Jabbor esa o‘z maqolasida shunday yozadi: “Biz 22-yilning so‘nggi oylarida Germaniyaga kelgach, buyuk Turkistonni talab, yondirib, ezib kelgan rus monarxistlari, Petrovskiy Ovroqaga yuborish uchun talaba topolmagan vaqtlarni eslariga olmasdan, sartlar Ovroqada nima qiladir? – degan istehzolar bilan matbuotlarida qichqirishib o‘tgan edilar. Rus millatchilarining bu sovuq va qo‘pol qarashlariga qarshi germanlar tomonidan yaxshi kutib olindik. Matbuot: “Turkiston uyg‘ondi, uyg‘ondi!” kabi undovlar bilan qizg‘in maqolalar yozib o‘tdi. Har qanday nemis bizni oilasiga qo‘shib olish uchun eshiklarini ochib qo‘ydi. Oddiy muallimidan tortib, doktori, professori til o‘rganishimiz uchun qo‘lidan kelgan yordamini ayamadi”. [5. 13]

Sh.Turdiyevning ma‘lumotiga ko‘ra turkistonlik talabalar Berlindagi “Ozod Sharq” nashriyotida Fitratning “Hind ixtilolchilari” (1923) dramasi, S.Ayninining “Qiz bola yoki Xolida” (1924) kitobini, shuningdek o‘zlarining “Ko‘mak” (1923) ilmiy, adabiy, ijtimoiy jurnalini nashr qilishadi.

Kitobda “Ko‘mak” jurnalining 1-soni mundarijasi va mazmuni bayon etilgan. Shuningdek, “Yosh Turkiston” jurnalining nashr etilish tarixi, 10 yillik ijodiy faoliyati va uning mualliflari, jurnal sahifalarida e‘lon qilingan maqola va badiiy asarlar mazmuni bayon etilgan.

Kitobning 2-qismi “Abduvahob Murodiy” tarjimayi holi, Germaniyaga borib ta‘lim olishi, arxiv hujjatlari asosidagi savol-javoblar, uning otuv jazosiga berilib



soʻngra bu hukm 10 yillik konslager bilan almashtirilganligi haqidagi hujjatlar ilovasidan iborat. Jumladan, bu turkistonlik talaba haqida shunday maʼlumotlar berilgan: “Shular ichida Germaniyaga birinchi boʻlib oʻz xohishi bilan ketgan va Berlin Qishloq xoʻjalik akademiyasini birinchi boʻlib bitirib qaytgan toshkentlik oʻzbek yigiti Abduvahob Murodiy ham bor edi”. Yoki yana shunday faktlar ham yozilgan: “Abduvahob Murodiy vatani Oʻzbekistonga qaytgach, Shreder nomidagi Bogʻdorchilik ilmiy-tekshirish institutida direktor muovini, shuningdek, Oʻrta Osiyo Davlat universiteti qishloq xoʻjalik fakultetida oʻqituvchi boʻlib ishlaydi. Respublika qishloq xoʻjaligi, ayniqsa, paxtachilik, mevachilik va chorvachilik sohalari boʻyicha amaliy va ilmiy ishlarni yoʻlga qoʻyish, bu sohalarda mahalliy kadrlarni tayyorlash ishlariga faol kirishib ketadi.” [6. 47]

Sh.Turdiyev arxiv hujjatlaridagi savol-javoblar chogʻida yozib olingan A.Murodiyning oʻz vataniga sidqidildan xizmat qilish istagida xorijga qochib ketmay, hatto qamalishini, soʻroq qilinishini kutib oʻtirganligi haqidagi maʼlumotlarni quyidagicha ifodalaydi: “A.Murodiy 1930-yil 17-iyulda Moskvada boʻlgan boshqa bir tergov jarayonida tergovchi savoliga javob berar ekan, unda goʻyo xorijga qochib ketish rejasi boʻlganligi haqidagi tuhmatlarning, xufyonomalarning mutlaqo asossizligini isbotlab, hech qachon xorijga qochib ketish istagida boʻlmaganini aytadi va hatto 1929-yil 6-noyabrda Toshkentda sobiq “ittihodchilar” Munavvar qori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xoʻjayev va boshqalar qamaliganidan soʻng ham hech yerga ketmay, qamalish soatlarini kutib turganligi va buni oʻylab, bola-chaqalarini koʻchada qarovsiz qolib ketish xavfidan qutqarish uchun Toshkentdagi bir hovlini bir yilga ijaraga olgani, sotsializm qurilishi yoʻlida xizmat qilish va oʻz vatanida oʻlish maqsadi bilan yashaganini bayon qiladi”. [7. 56]

Sh.Turdiyev A.Murodiyning keyingi taqdiri nomaʼlum boʻlib qolganini yozadi. Yaʼni: “Abduvahob Murodiy, uning xotini va qizining keyingi taqdiri boʻyicha olib borilgan izlanishlarimiz hozircha biror natija bermay qolmoqda” – deydi. Abduvahob Murodiy haqida tarixshunos Abduvali Yoʻldoshev tomonidan ilmiy tadqiqot yaratildi.

Bu qismda Germaniyaga oʻqishga ketib, vataniga qaytib kelib, qatagʻonga uchragan yoki ikki marotalab surgunga joʻnatilgan Xayrinisa Majidxonova, Maryam Sultonmurodova kabi ziyoli ayollarning fojiali qismati bilan tanishish mumkin.

Sh.Turdiyevning “Ular Germaniyada oʻqigan edilar” kitobining keyingi qismlarida ham Germaniyaga ketib qaytib kelmagan vatandoshlarimizning hayoti, taqdiri hikoya etiladi. Xususan, bu qism Germaniyaga oʻqishga ketib, Qizil imperiya qatagʻonidan Turkiyaga qochib, oʻsha yoqda yashab qolgan professor Tohir Chigʻatoy hayoti va qismati haqidagi maʼlumotlar berilgan. Sh.Turdiyev Tohir Chigʻatoyni



shunday tanishtiradi: “Shunday o‘zbeklardan, turkistonliklardan biri umr bo‘yi ona – Vatani Turkistonning ozod va obod bo‘lishini orzu qilgan, lekin bu kunlarni ko‘rmay, sho‘rolar istibdodi tufayli o‘z yurtiga qaytolmay, xorijda qolib ketgan vatandoshimiz professor Tohir Chig‘atoy (Shokirov)dir”. [8. 155] U o‘zbeklardan birinchi bo‘lib falsafa fanlari doktori degan ilmiy darajaga erishgan taniqli olim bo‘lib yetishadi.

Kitobdagi ma‘lumotlarga ko‘ra, T.Chig‘atoy 1902-yilda Toshkentda tavallud topgan. Shu yerdagi eski maktab, so‘ngra yangi usul va rus tuzem matablarida ta‘lim oladi. So‘ngra Ufa shahridagi madrasai “Oliya”da, Bokudagi dorilmualliminda tahsil oladi. 1922-yilda esa Germaniyaga ketib, Haydelberg universitetida o‘qishga kiradi. 1931-yilga qadar falsafa, sotsiyologiya va iqtisodiyot fanlaridan saboq oladi. Turkiston iqtisodiyoti bo‘yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Uning mazkur ilmiy ishi Bryusselda nemis tilida nashr etilgan. T.Chig‘atoy 1929-1939-yillarda “Yosh Turkiston” jurnalida faol ishtirok etadi. 1939-yilda oilasi bilan Anqaraga ko‘chib keladi. 1948-yildan boshlab Anqara universitetining til, tarix va jo‘g‘rofiya fakultetida sotsiologiya bo‘yicha ma‘ruzalar o‘qiydi. 1972-yilgacha mazkur fakultetda dotsent (1953-yildan), professor (1962-yildan) va ijtimoiy fanlar bo‘limi muduri lavozimida ishlaydi. 1987-yilda Bursa shahrida vafot etadi. Uning turmush o‘rtog‘i tilshunos olim Saodat Chig‘atoy.

T.Chig‘atoy O‘rta Osiyo xalqlarining sovet totalitar tuzumida yashagan xalqlarning ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotining achinarli jihatlari haqida o‘zining qator maqola va tadqiqotlarida yozdi. Binobarin, olimning “Bolshevik jinoyati qurbonlari”, “Milliy tuyg‘u va milliy ruh o‘ldirilmas”, “Sinfiy dushmanlar muhokamasi”, “Paxta atrofida” (1932), “Turkistonda qonli terror” (1934), “Turkistonda milliy adabiyot va adiblari fojiasi” (1935), “Turkistonda “Hamlet” tarjimasida ustida munozara” (1936), “Turkiston milliy adabiyoti atrofida”, “Turkistonda siyosiy pogrom” (1937) singari maqolalari bilan faol ishtirok etdi.

Muhajirlikda yashab, katta olim bo‘lib yetishgan T.Chig‘atoy sovet davrida bolsheviklarning Turkistonda olib borgan mustamlakachilik siyosati, qozoq, uyg‘ur, tojik, turkman xalqlarining madaniyati, tili, adabiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga tajovuzi, terrori haqgoylik bilan ochib tashladi.

Shuningdek, T.Chig‘atoyning “Turkistonda turkchilik va xalqchilik” (Istanbul, 1951, 1954), “Qizil imperializm” (Istanbul, 1958, 1962, 1967, 1967), “Turkistonda milliy ozodlik harakatidan lavhalar” (1959), “Sovet Rusiyasida millatlar masalasi cho‘ziladimi?” (1971) ijtimoiy-siyosiy va adabiy-tanqidiy asarlar yaratgan. Olimning barcha asarlari sarlavhasida uning muhajirlikda, vatandan chiqib, musofir yurtda yashada, ona vatani taqdiriga befarq emasligi ko‘rinib turibdi. Sh.Turdiyev



T.Chig‘atoyning Germaniya va Turkiya matbuoti hamda nashriyotlarida Turkistonning tarixiy o‘tmishi, adabiyoti, keyingi davrlarida ma’rifatchilik, jadidchilik va istiqbolchilik harakati va bu harakatning namoyandalari haqidagi, shuningdek, chorizm ham sovet hokimiyati davridagi mustamlakachilik siyosatining fojialari, oqibatlari haqidagi ilmiy asarlari mazkur siyosatga g‘oyaviy zamin bo‘lib xizmat qilgan soxta kommunistik g‘oyalarning asossizligini fosh etganini yozadi.

Sh.Turdiyevning “Ular Germaniyada o‘qigan edilar” kitobi sobiq turkistonlik talabalarning hayoti, fojiviy qismati, boshqa mamlakatlarga qochib ketganlarning esa muhojirlikda turib, sovet mustamlakachilik siyosatini qattiq tanqid qilib, vatan ozodligini orzu qilib o‘tgan ziyoli shaxslar biyografiyasi, faoliyati, qatag‘on qurbonlarining qismati haqida yaratilgan ilk qimmatli ilmiy tadqiqot hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Турдиев Ш. Улар Германияда ўқиган эдилар – Toshkent: “Akadem-xizmat” bosmaxonasi, 2006. – 256 b.